QASHQADARYO VILOYATINING GEOGRAFIK O‘RNI, AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

Egamqulov Husniddin Erkaboyevich – Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, g.f.f.d. (PhD)
e-mail: husniddinguldu93@gmail.com
Eshqobilov Asadbek Erkin o‘g‘li – Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi Geografiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Qashqadaryo viloyati – 1943-yilda 20-yanvar tashkil topgan [1]. 1960-1964 yillar oralig‘ida Surxondaryo viloyati bilan birlashtirilgan. 1964-yil 7-fevralda qayta tashkil etilgan. Viloyat maydoni 28570 kilometr kvadrat bo‘lib, mamlakat hududining 6,4 foizini egallaydi. Qashqadaryo viloyati maydonining kattaligiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlaridan so‘ng 4-o‘rinda turadi. Viloyat tarkibida 14 ta tuman 12 ta shahar, 147 ta Mahalla fuqarolari yig‘ini, 1064 ta qishloq bor (1-jadval).

1-jadval.

Qashqadaryo viloyati ma’muriy birliklar

T\r	Ma’muriy birliklar nomi	Ma’muriy markazi	Maydoni (ming km^2)
1	Qarshi shahri	Qarshi shahri	0,075
2	Dehqonobod tumani	Qorashina shaharchasi	4,0
3	Nishon tumani	Yangi Nishon shahri	2,1
4	Kasbi tumani	Mug‘lon shaharchasi	0,65
5	Kitob tumani	Kitob shahri	1,75
6	Koson tumani	Koson shahri	1,88
7	Mirishkor tumani	Yangi Mirishkor qishlog‘i	3,1
8	Muborak tumani	Muborak shahri	3,07
9	Qamashi tumani	Qamashi shahri	2,66
10	Qarshi tumani	Beshkent shahri	0,9
11	Yakkabog‘tumani	Yakkabog‘ shahri	1,3
12	Shahrisabz tumani	Shahrisabz shahri	1,70
13	Ko‘kdala tumani	Yettitom shaharchasi	1,71
14	G‘uzor tumani	G‘uzor shahri	2,62
15	Chiroqchi tumani	Chiroqchi shahri	2,8

Manba: Jadval Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Qashqadaryo viloyati mamlakatning janubida joylashgan, shimoli-g‘arb va g‘arbda Buxoro viloyati, shimolda Samarqand, shimoli-g‘arbda qisqaroq masofada Navoiy viloyati, janubi-sharq va sharqdan Surxondaryo viloyati bilan chegaradosh. Geosiyosiy mavqeyi ham o‘ziga xos; viloyatning hududi janub va janubi-g‘arbda Turkmaniston Respublikasi, shimoli-sharqdan Tojikiston Respublikasi bilan

chegaradosh. Qashqadaryo viloyati Samarqand viloyati bilan 276 km, Buxoro viloyati bilan 98,3 km, Navoiy viloyati bilan 12,5 km, Surxondaryo viloyati bilan 193,8 km, Tojikiston Respublikasi bilan 59,9 km, Turkmaniston Respublikasi bilan 253,3 km masofada chegaralangan.

Qashqadaryo viloyatining qo'shni davlatlar bilan chegarasining uzunligi jami: 313,2 km hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati Turkmaniston Respublikasi bilan jami 253,3 km. chegaradosh bo'lib shundan, Nishon tumani 75,7 km chegara hududi Turkmaniston Respublikasining Lebap viloyati bilan, Dehqonobod tumani 75,9 km. Chegara hududi Turkmaniston Respublikasining Lebap viloyati Chorshanbe va Do'stlik tumanlari bilan, Mirishkor tumani 79,5 km. chegara hududi Turkmaniston Respublikasining Lebap viloyati Xo'janbas tumani bilan; G'uzor tumani 22,2 km. chegara hududi Turkmaniston Respublikasining Chorjo'y viloyati Davlatli tumani Sardoba jamoa xo'jaligi Churdul qishlog'i bilan chegaradosh hisoblanadi.

Shuningdek, viloyat Tojikiston Respublikasi bilan jami 59,9 km. chegaradosh shundan, Shahrisabz tumanining 18,5 km. chegara hududi Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati Panjikent tumani Rog'ich va Mag'yon qishloqlari bilan, Kitob tumanining 41,4 km. chegara hududi Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati Panjikent tumani bilan chegaradosh. Yer usti tuzilishi ancha murakkab taxminan yarmidan ko'proq qismi tekislik va uncha baland bo'lmagan 250-500 metr tepaliklardan iborat. Viloyat hududining katta maydonini cho'llar egallagan. Viloyat shimoli-sharq, sharq va janubi-sharqda tog'liklar bilan o'ralgan. Bu yerda Zarafshon va Hisor tizmalari, Chaqchar tog'lari ko'tarilib turadi, ularning eng baland nuqtalari 3750-4400 metrgacha yetadi.

Qahqadaryo viloyati Qashqadaryo daryosi havzasida joylashgan, uning nomi ham, tarixi, geografiyasi ham aynan shu suv manbayi bilan bog'liq. Qashqadaryo daryosiga Oqsuv, Tanxozdaryo, Oyoqchidaryo, Qizildaryo va boshqalar kelib qo'shiladi. Natijada, viloyatning yuqori (Shahrisabz) mintaqasida gidrografik tizim ancha rivojlangan. Qashqadaryo quyi mintaqaga borgan sari uning suvi kamayib boradi va bir vaqtlar Zarafshon daryosigacha borib yetgan bu daryo hozirda Qarshi-Koson atrofida tamoman tugab qoladi.

Aholisi va mehnat resurslari. Qashqadaryo viloyati demografik sig'imi va ko'rsatkichlari bo'yicha Respublikamiz ma'muriy birliklari ichida Samarqand, Farg'ona viloyatlaridan keyingi 3-pog'onani egallaydi. jumladan, bundan 8-10 yil muqaddam 5-o'rinda edi. Bundan ko'rinadiki, Qashqadaryo viloyatida aholi soni tez o'sib, keyingi yillarda poytaxt Toshkent shahri va Andijon viloyatlaridan yuqoriladi.

2023-yilning 1-aprel holatiga viloyati bo'yicha jami doimiy aholi soni 3498,9 ming kishini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 2,2 foizga ko'paydi. Aholi soni ichida Ayollarning ulushi – 1726,5 ming kishi, Erkaklarning ulushi – 1772,4 ming

kishini tashkil qildi. Shahar joylarda – 1499,0 ming kishi, Qishloq joylarda – 1999,9 ming kishi. Aholisining diniy tarkibini asosan musulmonlar tashkil etadi. Aholining 56,2%i – mehnatga layoqatli yoshdagilar, 34% - mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar hissasiga to‘g‘ri keladi. Qashqadaryo viloyati aholisi milliy tarkibida o‘zbeklar keskin ajralib turadi – 92,3 %. Ikkinchi o‘rinda tojiklar – 4,3 %. Qolgan millat vakillaridan turkman va rus millatlari tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Soliyev A. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi Toshkent 2014. 286-301b.
2. Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.